

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

REFERAT



MAVZU: ARHITEKTOR-QURUVCHI SAN'ATKOR

**BAJARDI: Saidova F.
TEKSHIRDI: Abduqayumov A.**

TOSHKENT-2014



Arxitektura bu grekcha soʻz boʻlib - "bosh quruvchi"- degan maʼnoni anglatadi. Qurilish sohasi tarixi juda qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Demakki, meʼmorlik (arxitektorlik) kasbi ham shunchalik uzoq tarixga ega. Qaysi yurtga bormang, u yerdagi

saroylar, davlat idoralari, masjid-u cherkovlar, turli shakllarda qurilgan uylar sizning diqqatingizni oʻziga tortadi. Binolarning qurilishi va goʻzalligiga qarab muayyan mamlakatning rivojlanganlik darajasi, iqtisodiy ahvoli, urf-odatlarini baholanadi. Binolarning asl kashfiyotchilari esa albatta, meʼmorlar, hozirgi tilda aytdigan boʻlsak, arxitektorlar hisoblanadi.

Butun dunyoga mashhur Buyuk Xitoy devori, Afinadagi qadimgi akropollar, Misr ehromlari, Parijdagi Eyfel minorasi va shunga oʻxshash koʻplab binolar arxitekturaning mahsulidir.

Arxitektorlar insonlarning hayot kechirishi, qandaydir ish bilan shugʻullanishi uchun qulay muhit va makon yaratishadi. Koʻchalar, xiyobonlar, parklar, stadionlar, mahallalar va shaharlar oʻz goʻzalligi bilan kishi diqqatini jalb qilishi kerak. Arxitektorlik esa aynan nafosat bilan qurilishni amalga oshirish hisoblanadi.

Miloddan avvalgi davrlarda yashagan rimliklar qurilajak meʼmoriy binolarga uch shart qoʻyishgan: qulaylik, chidamlilik va goʻzallik. Demak, meʼmorning muvaffaqiyatga erishishida faqatgina binoning qurib bitkazilishi emas, balki uning mustahkamligi va goʻzalligi ham ahamiyat kasb etadi. Basharti goʻzallik fizik qonunlarga boʻysunmasa, u uzilgan gul kabi tezda oʻz chiroyini yoʻqotadi. Yaʼni binoga qandaydir shakl berayotgan meʼmor oʻsha binoning devorlari va ustunlari nimagadir tayanishini, uning turgʻunligini hisobga olishi kerak. Masalan, gʻishtlarning bir-birining ichiga kirishi bu turgʻunlikning asosiy sababi boʻlishi mumkin.




Quruvchilar arxitektor chizgan reja bo'yicha harakat qilishadi. Ya'ni arxitektor quruvchilarning qanday harakatlanishlari lozimligini ham ma'lum bir algoritmgga solib beradi. Arxitektor bino qurilayotgan yerning demografik joylashishini, iqlimini, geologiyasini juda yaxshilab o'rganishi lozim. Yuqoridagi omillardan kelib chiqqan holda binoning tarkibi, asosi va qanday qurilish ashyolaridan foydalanish kerakligi haqida xulosa qilinadi. Masalan, zax yerlarda asos qurish uchun yerni kavlash foydadan ko'ra zararli bo'ladi. Demak, zax yerlarda asosning qanday qilinishini arxitektor o'ylab topishi kerak. Yoki sho'rxok yerlarda qanday qurilish ashyosi ko'proq xizmat qila olishi haqida ham arxitektorlar yaxshi ma'lumotga ega bo'lishi kerak.



Arxitektor bo'lishni niyat qilgan o'quvchilar juda keng fazoviy fikrlash va tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Zotan arxitektorlik-muhandislikdan ko'ra ko'proq san'atkorlikni talab qiladigan kasb. Bu gapning isboti sifatida dunyodagi go'zal binolarni misol qilib keltirish mumkin. Yurtimizdagi me'moriy obidalar ham fikrimiz dalilidir.

Barcha sohalar kabi arxitektura ham rivojlanib bormoqda. O'tmishda barcha hisob-kitob va chizmalar qog'ozlar ustida olib borilgan bo'lsa, hozirgi zamon arxitektorlari shaxsiy kompyuterlar yordamida faoliyat yuritmoqdalar. Kompyuterlarda bu soha vakillari uchun ham maxsus dasturlar (Autocad, Archicad, va h.k.) ishlab chiqilgan. Bu esa yaxshi arxitektor bu dasturlar va kompyuterlardan foydalanishni ham bilishi lozimligini ko'rsatmoqda.



Arxitektura sohasida mutaxassis bo'lishni dilga tuggan yoshlar Arxitektura va qurilish institutining arxitektura fakultetida o'qishlari mumkin. Bu fakultet talabasi bo'lish uchun matematika, ona tili va adabiyot fanlaridan test topshirishadi hamda chizma chiza olish qobiliyati bo'yicha amaliy imtihon topshirishadi.





Qurilish sohasi doimo muhim kasblardan biri bo'lgan. Bu soha vakillari ish topishda ham, pul topishda ham hech qachon qiynalishmagan. Tajribali, keng fikrli va mehnatkash arxitektorlarga har doim, har yerda talab bo'ladi.

Me'morchilik deganda - bino, binolar kompleksini loyihalash va loyihani amalga oshirish, bunyod qilingan inshoot san'ati va ilmi tushuniladi. Demak, me'morchilik - faqat ilmgina emas, balki ilmning san'at bilan qo'shilgan ko'rinishidir.

Me'morchilik ilmi o'zining uzoq tarixiga ega.

Buyuk qadimgi Rim me'mori Mar Vitruviy o'zining me'morchilik haqida yozgan traktati "Me'morchilik haqida o'n kitob" da quyidagi formulani qo'yadi.

Me'morchilik bir vaqtning o'zida uch xil vazifani yechadi - funksional, konstruktiv va tasviriy tomonni. Har bir me'morchilik asarida yuqorida aytilgan sifatlar dialektik nuqtai nazardan bir-biri bilan bog'lanib, bir - birini to'ldirib yaxlitlikni tashkil etadi.

Inson ibtidoiy jamoa tuzumi va keyingi davrlarda tashqi muhit noqulayligidan, yovvoyi hayvonlardan saqlanish uchun oddiy binolarni qura boshlagan, lekin chiroyli, go'zallik qoidalariga amal qilgan holda qurilgan binolarga yetib kelish uchun ming yillar kerak bo'lgan.

Me'morchilik va san'at taraqqiyoti tarixida sahifa ochgan uyg'onish davri - Rennessans (XV asrning oxiri-XVI asrning boshlari) uslubi negizini qadimgi davr sinfik me'morchilik prinsiplarini yangi davr talablari asosida tiklash va rivojlantirish tashkil etildi. Orderlar sistemasiga asoslanib keng ko'lamdagi va murakkab ko'rinishdagi me'morchilik komplekslari, ansambllari yaratildi. Binolar haddan tashqari bezakdor qilib quriladigan bo'ldi. Me'morchilikda Barokko uslubi keng tarqaldi. Rennessans me'morchilik usul va prinsiplarini yangi zamonga tadbqiq etish natijasida sinfitsizm uslubi paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq me'morchiligi ham o'ziga xos uygonish davrini bosib o'tdi-yu, me'morchilikda naqsh va rangga alohida e'tibor berildi, binolarning yangi turlari va kompozitsiyalari ijod qilindi. Osiyoning Budda dini





tarqalgan mamlakatlarida Buddaga atalgan Budda haykallari bilan bezatilgan ko'pgina ibodatxonalar qurildi. Rus me'morchiligi o'z taraqqiyoti davomida turli badiiy uslublar yaratib, yetuk me'morchilik inshootlari, kompleks va ansambllarni bitqazdi (Novgorod, Suzdal, Pskov, Vladimir, Moskva). Jamiyat rivojlanishi bilan me'morchilik inshootlari va komplekslarining turi va ko'rinishi ham o'zgara boradi. Har bir xalqning milliy an'analari, turmush sharoiti, madaniyati va istiqomat qilinadigan joydagi tabiiy sharoit va mavjud qurilish materiallariga qarab me'morchilikda o'ziga xos shakl va turlar paydo bo'ldi.



Me'morchilik inshootlari quyidagi turlarga bo'linadi: uy-joy binolari, madaniy-oqartuv binolari, teatr, muzey, maktab, stadion, mudofaa inshootlari, savdo rastalari, savdo va transport inshootlari, diniy binolar va boshqa me'morchilik inshootlari ko'cha,

maydon, bog' kabi sahnalar orqali o'zaro bog'lanib mahalla, guzar, daha, rayon, mikrorayon, shahar kabi komplekslarni tashkil etadi. Shularni yaratishga qaratilgan me'morchilik ijodi «shahar tuzish san'ati» degan me'morchilikning bir sohasiga aylangan. Me'morchilik inshootlari jamiyatning moddiy ehtiyojlaridan tashqari, o'sha davr ijtimoiy xayotidagi asosiy g'oyalarni ham ifoda etadi. Masalan: Amir Temur ulkan me'morchilik inshootlari orqali ham (Shahrisabzdagi Oq saroy) o'z qudratini namoyish qilmoqchi bo'lgan. Shu kabi qadimga ko'shk va saroylarda hukmron sinflarning did va ideallari ifoda etilgan. Demak, me'morchilikda binolarning joylashtirilish plani – ichki interyer, tashqi – fasadni hal qilish, umumiy kompozitsiyani belgilash kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun me'mor umuman me'morchilik yutuqlarini chuqur o'rgangan bo'lishi, mahalliy va tabiiy sharoit, xalqlarning milliy va badiiy an'alarini didi va talablarini hisobga olishi kerak. O'zbek me'morchiligi ham o'zining qadimiy tarixiga ega. U o'zining taraqqiyot jaryonida noyob namunalar yaratdi va jahon yutuqlaridan foydalanib, zamonaviy qiyofa kasb etmoqda.

